

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

2026
mart

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT week Uzbekistan 2025: Milliy texnologiyalar haftaligining yakunlari va ularning O‘zbekiston IT-ekotizimiga ta’siri.....	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA’SIRINI VAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne’mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o’g’li	
XIZMAT KO’RSATISH TARMOG’INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA “YASHIL” INVESTITSIYALARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO’L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG’URTA TASHKIOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI.....	71
Po’latova Sug’diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To’raqulovna	
O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI

Allaberganova Kumush Javlonbek qizi

Bank-moliya akademiyasi,
Magistranti

Ilmiy rahbar:

Beknazarova N.T.

TDIU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq imtiyozlari va preferensiyalarining iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Soliq yengilliklarining investitsion faollikka, xorijiy kapitalni jalb qilishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga va iqtisodiy o‘shishga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilashda soliq siyosatining roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, soliq imtiyozlari, preferensiyalar, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, iqtisodiy o‘shish, kapital qo‘yilmalar, soliq siyosati.

Abstract. This thesis analyzes the economic importance of tax incentives and preferences in developing investment activity in Uzbekistan. The impact of tax benefits on investment activity, attraction of foreign capital, modernization of production, and economic growth is highlighted. In addition, the role of tax policy in improving the investment climate is substantiated.

Keywords: investment, tax incentives, preferences, foreign investment, investment climate, economic growth, capital investment, tax policy.

АННОТАЦИЯ. В данной тезисе проанализировано экономическое значение налоговых льгот и преференций в развитии инвестиционной деятельности в Узбекистане. Освещено влияние налоговых стимулов на инвестиционную активность, привлечение иностранного капитала, модернизацию производства и экономический рост. Также обоснована роль налоговой политики в улучшении инвестиционного климата.

Ключевые слова: инвестиции, налоговые льготы, преференции, иностранные инвестиции, инвестиционный климат, экономический рост, капитальные вложения, налоговая политика.

KIRISH

O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq imtiyozlari va preferensiyalari muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Ular investorlarning moliyaviy xarajatlarini kamaytiradi, investitsiya loyihalarining rentabelligini oshiradi va kapital qo‘yilmalarni ko‘paytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda eksportga yo‘naltirilgan korxonalarini rivojlantirishda soliq yengilliklari katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonunda [1] investorlarning huquqlari, investitsiyalarni himoya qilish, daromadlarni erkin tasarruf etish va investitsiya sharoitlarining barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha kafolatlar belgilangan. Bu esa investitsion muhitni yaxshilash va investorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Qonunchilikda investitsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy usullaridan biri sifatida aynan imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llash belgilangan bo‘lib, bu ular orqali qulay investitsiya muhiti yaratish, raqobatbardosh, innovatsion, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirish maqsad qilinganini ko‘rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining 01.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi"ga [2] ko'ra, soliq imtiyozlari soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa to'lovchilarga nisbatan beriladigan afzalliklar bo'lib, ular soliqni kamroq miqdorda to'lash yoki ayrim hollarda to'lamaslik imkonini beradi. Shu jihatdan, bunday yengilliklar investorlarning moliyaviy yukini kamaytiradi, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshiradi va kapital qo'yilmalarni ko'paytirishga xizmat qiladi. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari va ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun alohida soliq tartiblarining mavjudligi ham investitsion faollikni kuchaytiruvchi omildir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining 26.08.2016-yildagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"dagi 2822 - sonli qaroriga [3] asosan qulay shart-sharoitlar yaratish, maxsus iqtisodiy zonalar rivojlantirish va qo'shimcha kafolatlar berish orqali investorlarni qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan. Bu esa iqtisodiyotga ko'proq kapital jalb qilish, hududlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

A. Otaboyev, J. Juliana, F. Nasriddinovning tadqiqotida [4] ta'kidlanganidek, investitsion jozibadorlikka makroiqtisodiy barqarorlik, siyosiy muhit, huquqiy-me'yoriy baza, infratuzilma va soliq siyosati bevosita ta'sir qiladi. Xususan, maqolada soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, past byurokratik to'siqlar va rivojlangan logistika tizimi investitsiya muhitini yaxshilovchi asosiy omillar sifatida baholangan.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda soliq imtiyozlari va preferensiyalarini oqilona qo'llash investitsiya faolligini oshirish, xorijiy kapitalni jalb etish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi [5]

Moliyalashtirish manbasi	Hajmi (trln so'm)	Hajmi (mlrd AQSH dollari)	Ulushi (%)
Jalb qilingan mablag'lar (jami)	374,7	29,63	75,9
– Kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar	159,6	12,62	32,3
– To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	150,5	11,90	30,5
– Respublika kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	23,6	1,87	4,8
O'z mablag'lari (jami)	119,0	9,40	24,1
– Korporativ mablag'lar	87,0	6,88	17,6
– Aholi mablag'lari	32,0	2,53	6,5
Jami	493,7	39,03	100

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning asosiy qismi jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirilgan bo'lib, ularning ulushi 75,9 foizni tashkil etgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida tashqi investitsiya manbalari va qarz mablag'larining muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Xususan, kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 32,3 foiz, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 30,5 foiz ulushga ega bo'lib, investitsiya faoliyatida xorijiy kapitalning ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan investitsiyalar ulushi 24,1 foizni tashkil etgan. Bunda korporativ mablag'lar 17,6 foiz bilan asosiy ichki manba bo'lib xizmat qilgan, aholi mablag'lari esa 6,5 foiz ulushni egallagan. Mazkur holat mamlakatda investitsion faollikni oshirishda ichki resurslardan foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Jadval tahlili asosida aytish mumkinki, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq imtiyozlari va preferensiyalari muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan soliq yengilliklari xorijiy investorlarni jalb qilish, korxonalarining o'z mablag'larini investitsiyaga yo'naltirish va investitsion loyihalarning jozibadorligini oshirishda asosiy rag'batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq imtiyozlari va preferensiyalari muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ular investorlarning moliyaviy xarajatlarini kamaytiradi, investitsiya loyihalarining rentabelligini oshiradi hamda xorijiy va mahalliy kapital oqimini rag'batlantiradi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlarning yuqori ulushi mamlakat investitsion muhitining jozibadorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Soliq imtiyozlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Shu bilan birga, soliq imtiyozlari va preferensiyalarini yanada samarali qo'llash uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Jumladan, soliq imtiyozlarini iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalarga ko'proq yo'naltirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, imtiyozlar berish mexanizmlarining shaffofligini oshirish, ularning natijadorligini muntazam monitoring qilish va hududlar kesimida differensial yondashuvni kuchaytirish zarur. Bu esa investitsion faollikni yanada oshirish, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash va mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-598-sonli Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasining 01.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining 26.08.2016-yildagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"dagi 2822 - sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-3020217>
4. Otaboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov, "Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, mart. № 3-son. 704-708 b. <https://www.yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1397>
5. Отабоев Ахмед Махсудбек ўғли. Анализ структуры и источников финансирования инвестиций в основной капитал в Узбекистане: современные подходы и стратегические направления // SOCIAL, ECONOMIC, SCIENTIFIC AND TECHNICAL ACADEMIC JOURNAL. – 2025. – № 4 (August). – С. 5–11. <https://zenodo.org/records/16929179>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100